

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI**

ASHUROVA NILUFAR O‘KTAMOVNA

**VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQ VA MANFAATLARINI
JINOIY-HUQUQIY MUHOFAZASINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)

Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Ashurova Nilufar O‘ktamovna

Voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy muhofazasini takomillashtirish 3

Ашурова Нилуфар Уктамовна

Совершенствование уголовно-правовой защиты прав и интересов несовершеннолетних 31

Ashurova Nilufar Uktamovna

Improvement of criminal law protection of the rights and interests of minors..... 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works64

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI**

ASHUROVA NILUFAR O‘KTAMOVNA

**VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQ VA MANFAATLARINI
JINOIY-HUQUQIY MUHOFAZASINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Yu394 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayti (www.mgixu.uz) hamda “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

O‘razaliyev Murod Qorayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Qalandarov Maqsud Maxmudovich
yuridik fanlar doktori, professor

Utemuratova Sapargul Shamshetovna
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil 19-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +998971 230-32-71; faks: +99871 230-32-50; jxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3303 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +99871 230-32-71; faks: +99871 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-dekabrda tarqatildi.

(2025-yil 9-dekabrda 26-raqamli reyestr bayonnomasi).



D.M. Mirazov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

J.D. Axmedov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

M.B. Usmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlar eng dolzarb va xavotirli muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday jinoyatlarga jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik, ekspluatatsiya, bolalar savdosi, kiberzo‘ravonlik hamda zo‘ravonlikning boshqa shakllari kiradi. Jumladan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra¹, dunyodagi har ikkinchi bola – taxminan 1 milliard nafar – har yili turli shakldagi zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra², har yili taxminan 1 million bola jinsiy savdo qurboniga aylanadi. Har yili taxminan 40 ming bola ota-onalari yoki qonuniy vasiylari tomonidan amalga oshirilgan zo‘ravonlik oqibatida halok bo‘ladi³. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida jinsiy tUSDagi jinoyatlarni sodir etuvchilarning 80 foizi bolalar bilan aloqa o‘rnatish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi (Interpol ma‘lumotlari)⁴.

Jahon miqyosida voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy-huquqiy muhofazasini takomillashtirish, bolalarga nisbatan har qanday shakldagi tajovuz va zo‘ravonliklarning oldini olish, ularning huquq va erkinliklarini samarali ta‘minlashga qaratilgan keng qamrovli va kompleks ilmiy-tadqiqot ishlari izchil davom ettirilmoqda. Xususan, 172 davlatda bolalarga nisbatan jismoniy, emotsional va jinsiy zo‘ravonlik holatlarining tarqalishini tahlil qilish, pedofiliya uchun umrbod qamoq jazosi belgilagan mamlakatlar va jazo darajasi past bo‘lgan mintaqalar qonunchiligining samaradorligini qiyosiy tahlil qilish, internet va ijtimoiy tarmoqlarda sodir etiladigan “gruning” (ishonchga kirish orqali manipulyatsiya qilish) taktikalari va usullarini o‘rganish, zararli kontentni aniqlash uchun sun‘iy intellekt algoritmlarini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning ruhiy salomatlikka uzoq muddatli ta‘siri (depressiya, posttravmatik stress buzilishlari, suitsidal moyilliklar)ni ilmiy o‘rganish va ularni resotsializatsiya hamda readaptatsiya qilish tizimlarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, bolalarni huquqiy muhofaza qilish sohasida javobgarlik va jazo choralarini qo‘llashda differentsiatsiya va individuallik tamoyillarini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda ta‘minlash, ularni milliy qonun hujjatlarida samarali aks ettirilish darajasini oshirish masalalari alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda mazkur yo‘nalishlarda mavjud nazariy va amaliy muammolarni tahlil qilish, ularning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish hamda xalqaro huquqiy normalar va inson huquqlari sohasidagi umume‘tirof etilgan standartlar bilan uyg‘unlashgan takliflar, tavsiyalar tayyorlash zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ustuvor vazifasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining barcha yo‘nalishlarida voyaga yetmaganlarning huquqlari, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, oilaga, yoshlarga, axloqqa qarshi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan keng qamrovli

¹ https://www.who.int/violence_injury_prevention

² <https://www.unicef.org/protection>

³ Исследования в журнале «The Lancet» или отчёты UNICEF A Familiar Face: Violence in the Lives of Children and Adolescents (2017).

⁴ Crimes Against Children (доступ через официальный сайт Interpol).

dasturiy tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi¹ Farmoni 1-Ilovasining 14-maqсадida mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish borasida bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash vazifasini bajarish ko‘zda tutildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi² Farmoni 1-illovasining 24-maqсадida “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish borasida jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirish” vazifasi belgilandi.

Bu esa o‘z navbatida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish; jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish; aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish kabi muhim vazifalarni belgilaydi. Davlatimizning mazkur strategiya asosida belgilagan maqsadlarini bajarish, eng avvalo, voyaga yetmaganlarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasini tadqiq etish orqali jinoyat qonunchiligida mazkur jinoiy qilmish bilan bog‘liq jazo choralari ta‘sirchanligini oshirish, mas‘ul shaxslar va kasb egalarining javobgarligini alohida belgilash orqali takomillashtirish, ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy tahdidlarni va jalb etish usullarini aniqlagan holda ularni qonunchilik hujjatlarida aks ettirish, amaliyotda mavjud muammolarni aniqlagan holda sohada institutlar huquqiy himoyasini takomillashtirish, mazkur turdagi jinoyatlar profilaktikasida fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilik ishtirokini ta‘minlashni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994), O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–139-sonli, O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ–263-sonli, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-avgustdagi “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ–633-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4850-sonli, 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6017-sonli va 2021-yil

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5841063>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

13-iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6260-sonli Farmonlari, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–158-sonli hamda 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2833-sonli, 2018-yil 14-maydagi “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3723-sonli, 2019-yil 22-apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4296-sonli farmon va qarorlari hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ilm-fanni rivojlantirishning “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarining jinoiy-huquqiy muhofazasiga oid muayyan ilmiy tadqiqotlar dunyoning ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlarida va oliy o‘quv yurtlarida, jumladan, Rossiya Federatsiyasi V.N. Tatisheva nomidagi Voljsk universiteti (Voyaga yetmagan shaxslarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy himoya qilish) (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya Ichki ishlar vazirligining Ufa yuridik instituti (Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish jinoiyat-huquqiy jihatlari) (Rossiya Federatsiyasi), Al Farobiy nomidagi Qozog‘iston milliy universiteti kabi yetakchi ilmiy va oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshirilmoqda. Bunday ilmiy izlanishlar natijasida voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy muhofaza qilishni takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan, jumladan: Bolalarga nisbatan odil va samarali jinoyat odil sudlovi bo‘yicha o‘n tarkibiy qismli reja (*Penal Reform International* (PRI) Xalqaro notijorat tadqiqot markazi); muhojir bolalarni g‘ayriijtimoiy harakatga jalb etilishini jinoiy-huquqiy himoyalash (Qozog‘iston Respublikasi qonunchilik instituti, Qozog‘iston); tarbiya maqsadida bolalarga shafqatsiz usullarni qo‘llashni jinoiy-huquqiy taqiqlash (AQShning Jorj Vashington universiteti); Yevropada bolalarni himoya qilish nodavlat tashkilotlari uchun huquqiy makon tashkil etish muammolari (Yevropa Kengashining ilmiy tadqiqotlar markazi); voyaga yetmaganlarni moliyaviy-huquqiy himoyalash tadqiqotlari (*Hacettepe* universiteti, Anqara, Turkiya), voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinoiy-huquqiy ta‘sir choralarining umumiy standartlarini ishlab chiqish bilan

¹ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_8824/;

https://www.researchgate.net/publication/384163218_PROTECTION_OF_THE_RIGHTS_OF_THE_CHILD_THROUGH_CRIMINAL_LAW_MEASURES; <https://www.penalreform.org/>, <https://droit.cairn.info/?lang=en>, https://unicri.org/topics/juvenile_justice/; <https://ru.wikipedia.org/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

bog'liq tadqiqotlar (Mishkols universiteti, Vengriya); Bolalarni har qanday turdagi zo'rvonlikdan himoya qilishning xalqaro me'yorlarini ishlab chiqish masalalari (Bolalarga qarshi jinoyatlar bo'yicha tadqiqot markazi – CCRC), voyaga yetmaganlarning sog'lom kelajakka bo'lgan huquqlarini jinoiy-huquqiy mustahkamlash (Yaponiya Xalqaro almashinuv markazi, Tokio); Osiyo mamlakatlari (Yaponiya va Janubiy Koreya misolida)da bolalarni himoya maqomini rivojlanish tendensiyalari (Songyungvan Universiteti, Janubiy Koreya); Yaroslav Mudriy nomidagi Milliy yuridik universitet (Ukraina) Ukraina qonunchiligida Yuvenal adliya tizimida voyaga yetmagan shaxsning jinoiy-huquqiy himoya subyekti sifatidagi minimal yoshi 14 yosh sifatida belgilanishi lozimligini ilmiy asoslab berdi.

Yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqotlarda voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari jinoiy-huquqiy muhofazasini takomillashtirishning ustuvor vazifalari sifatida bolalar jinoyat qurboni bo'lib qolishining oldini olish yoki jinoyat sodir etgan bolalarga nisbatan ta'sir choralarining xalqaro me'yorlarini ishlab chiqish, bunday standartlarning normativ mexanizmlarini rivojlantirish, ularni davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalari tadqiq etilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda voyaga yetmagan shaxsning jinoiy-huquqiy muhofazasini takomillashtirishning ayrim jihatlariga oid tadqiqotlar Q.R. Abdurasulova, B.D. Axrarov, B.A. Arifjanov, U. Abduganiyev, Sh.O. Azim, Z.S. Zaripov, O.G. Zakirova, Y.M. Karaketov, R. Kabulov, M.M. Kadirov, Muhammad ibn Mahmud Ustrushaniy, M.X. Rustambayev, A.K. Rasulev, A.A. Rasulev, R.D. Ruziyev, M.A. Sattarova, M.K. O'razaliyev, M.B. Usmonov, U.Sh. Xolikulov, Sh.R. G'ofurov, Sh.N. Yuldashev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

MDHga a'zo davlatlarda M.G. Autlev, N.A. Babiy, T.S. Barilo, F.G. Burchak, A.V. Brilliantov, Y.P. Grishina, S.V. Goncharova, I.K. Dzutsev, Y.V. Demidova-Petrova, V.F. Ivanov, A.S. Kubatbekova, V.V. Kartavchenko, I.P. Lanovenko, D.V. Popov, P.N. Putilov, Y.E. Pudovochkin, L.M. Prozumentov, Y.N. Polunina, G.A. Reshetnikova, I.N. Tuktarova, N.M. Xromova, I.R. Shikula, A.V. Shtefan, N.P. Shevchenko va boshqalar¹ voyaga yetmagan shaxsning jinoiy-huquqiy muhofazasiga oid tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijiy olimlardan Anne-Marie Kilday, Barry Goldson, Mary Sue Backus, Arts Karin, Emiliy Buss, Leila R. Siddiky, Daniel Pollack, Emiliy Metzgar, Daly Kathleen (AQSh), Buck Trevor, David Nash, Erika Varadi-Csema (Vengriya), Simmons J.L., McColl J. (Buyuk Britaniya), Mamta Rao (Hindiston), Stephanie Rap (Niderlandiya), Frank E. Vogel (Germaniya) va boshqalar² mazkur mavzuning ayrim jihatlarini tadqiq etishgan.

Mamlakatimizda voyaga yetmagan shaxsning jinoiy-huquqiy muhofazasiga oid ilmiy tadqiqotlar orasida Sh.O. Azimning "Voyaga yetmagan shaxsning ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilishga qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy

¹ Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

choralari”, F.L. Miruktamovning “Voyaga yetmaganlar odil sudlovining xalqaro standartlari”, B.A. Umirzakovning “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishni takomillashtirish”, Z.Y. Turabayevaning “Voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish”, A. Ismailovning “Voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlari profilaktikasi”, Sh.N. Yuldashevning “Bola savdosi uchun javobgarlikni takomillashtirish”, U. Abduganiyevning “Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tavsifi va ularning oldini olish masalalari”, N.T. Ismoilovning “Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining individual oldini olish muammolari” mavzularida hamda M. Uteniyazov tomonidan voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olish muammolari ilmiy jihatdan o‘rganib chiqilganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlari masalaning qisman yoki ayrim jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy-huquqiy muhofazasi yuzasidan kompleks ravishda tadqiqotlar o‘tkazilmagan, alohida monografik tadqiqot olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarining jinoiy-huquqiy muhofazasini takomillashtirish” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari jinoiy-huquqiy muhofazasini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlari jinoyat-huquqiy muhofaza obyektini tahlil etish;

voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishdagi muammolar va bo‘shliqlarni aniqlash;

voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlari muhofazasining xalqaro-huquqiy asoslarini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish;

voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarni tasniflashdagi o‘ziga xos jihatlarni ochib berish;

voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik qo‘llab sodir etiladigan jinoyatlarni jinoiy-huquqiy tahlil qilish;

voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiluvchi jinsiy jinoyatlarni jinoiy-huquqiy tahlil qilish;

oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik negizida voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlari himoya qilinishini jinoiy-huquqiy tahlil etish;

rivojlangan G‘arb davlatlarida voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarining jinoiy-huquqiy muhofazasini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish;

Sharq davlatlarida voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari jinoiy-huquqiy muhofazasi tajribasini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish;

MDHga a'zo davlatlarda voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari jinoyi-huquqiy muhofazasining o'ziga xos jihatlarini ochib berish;

voyaga yetmaganlarga qarshi sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda zamonaviy yondashuvlarni ochib berish;

jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari himoyasiga oid amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, qonunni qo'llash amaliyotini yaxshilash yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning obyekti voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlari jinoyi-huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlari jinoyi-huquqiy himoyasining nazariy asoslari, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning jinoyi-huquqiy tavsifi hamda ularni kvalifikatsiya qilish muammolari, voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari muhofaza qilishning xalqaro huquqiy asoslari, xalqaro kelishuv va shartnomalar, xorijiy mamlakatlar tajribasi, yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullari, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, anketa so'rovlari, statistik ma'lumotlar tahlili, funksional yondashuv, tizimlilik, tergovga qadar tekshiruv organlari faoliyati tahlili, sud amaliyoti hamda jinoyat ishlarini o'rganish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

voyaga yetmagan shaxsni noqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undaganlik uchun jinoyi javobgarlik belgilanishi yosh avlodning ekstremistik g'oyalardan muhofazasi kuchaytirilishiga va jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy barqarorligi ta'minlanishiga xizmat qilishi asoslantirilgan;

voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan jinsiy turdagi jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanmasligi jinoyatchilarga manzilli profilaktik ta'sir o'tkazilishiga, retsdiv jinoyat xavfining kamaytirilishiga, jazoning uzil-kesil va to'liq ijro etilishi ta'minlanishiga xizmat qilishi isbotlangan;

o'n to'rt yoshga to'lmagan jabrlanuvchi (kichik yoshdagi bolalar)ga nisbatan sodir etilgan nomusga tegish jinoyati ojiz ahvol sifatida inobatga olinishi jinoyatchi qilmishining qat'iyroq baholanishiga, jazoning og'irroq belgilanishiga, bolalarga nisbatan nomusga tegish jinoyatlarining barvaqt profilaktikasiga, ojiz holatdagi jabrlanuvchilarni himoya qilish samaradorligi oshirilishiga imkon berishi isbotlab berilgan;

voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy turdagi jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rt dan uch qismidan oshmasligi to'g'risidagi qoidaning qo'llanmasligi jinoyatchilarga nisbatan qat'iy va adolatli jazo

tayinlanishiga, yoshlarga nisbatan sodir etilayotgan jinsiy jinoyatlar sonining kamaytirishga xizmat qilishi asoslantirib berilgan;

jinoiy jazo tayinlashda jinoyat sodir etish paytida o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan bir necha hukm yuzasidan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati o‘n besh yildan oshmasligi yosh jinoyatchilar resotsializatsiyasining yengillashtirilishiga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari jinoiy-huquqiy muhofazasini takomillashtirishni nazarda tutgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini barcha jabhalarda ta‘minlash bo‘yicha konseptual o‘zgarishlarni ko‘zda tutuvchi “O‘zbekistonda bola huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha 2025 – 2030-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya” loyihasi va mazkur loyihadagi vazifalarni o‘z vaqtida hamda sifatli amalga oshirishni nazarda tutuvchi “Yo‘l xarita” loyihasi ishlab chiqilgan;

bolalarga qarshi sodir etilgan jinoyatlarning markazlashgan reyestrini yaratish, ya‘ni huquqni muhofaza qilish idoralari, sudlar va ijtimoiy xizmatlar uchun ochiq bo‘lgan reyestrni shakllantirish zarurati asoslantirilgan;

voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga psixologik va yuridik yordamni avtomatlashtirish, himoya orderlari va yuridik maslahatlarni onlayn platformalar orqali olish imkoniyatini yaratish hamda bolalar huquqlarini tushuntiruvchi interaktiv chat-botlar va mobil ilovalar yaratish zarurati asoslantirilgan;

jabrlanuvchi bolalarni rehabilitatsiya qilish uchun maxsus grant dasturlari joriy etish, jabrlanuvchilar uchun ta‘lim grantlari, rehabilitatsiya va ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyotiga asoslangan. Bundan tashqari, xulosalar Toshkent shahar tumanlar IIO FMB Tergov bo‘limi tergovchilari, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudidan olingan statistik ma‘lumotlar va 100 ga yaqin sud hukmlarining tahlili natijalari asosida umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning *ilmiy ahamiyati* shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan natijalar jinoyat huquqi va kriminologiya fanlari nazariyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan xulosalardan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, yuridik oliy o‘quv yurtlarida jinoyat huquqi va kriminologiya fanlaridan dars o‘tish hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik belgilash va uning oldini olish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ifodalanadi. Tadqiqot natijalaridan Jinoyat kodeksi hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish va jinoyat huquqi, kriminologiya, viktimologiya, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish kabi fanlarni o'qitishda, ushbu fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy himoya qilish masalalarini tadqiq etishning ilmiy natijalari asosida:

voyaga yetmagan shaxsni g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-63-son Qonunining 1-modda 4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 20-martdagi 27/2-49-25-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi voyaga yetmaganlarni ekstremistik, destruktiv tashkilotlar ta'siridan himoya qilish uchun qonuniy asoslarning yaratilishi, bu orqali ularning huquqlari va erkinliklari kafolatlanishiga xizmat qilgan;

voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan jinsiy turdagi jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslarga jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanmasligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-829-son Qonunining 3-moddasi 2-bandi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasi, to'rtinchi qismi, "g" bandiga kiritilgan o'zgartirish)ni shakllantirishda foydalanilgan. (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 20-fevraldagi № 3/dn-35-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxslarning jinoiy harakatlari uchun to'liq va to'g'ri javobgarlikni ta'minlash, jazoning tarbiyaviy ta'sirini saqlab qolish hamda shu orqali voyaga yetmaganlarning jinoiy-huquqiy muhofazasini takomillashishiga xizmat qilgan;

o'n to'rt yoshga to'lmagan jabrlanuvchi (kichik yoshdagi bolalar)ga nisbatan sodir etilgan nomusga tegish jinoyati ojiz ahvol sifatida inobatga olinishi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-son qarori 6-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 2025-yil 30-apreldagi № 01-29-66-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi kichik yoshdagi bolalarning

jismoniy va psixologik himoyasini kuchaytirish, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshirish va jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida baholashni ta'minlaydi; voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy turdagi jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rt dan uch qismidan oshmasligi to'g'risidagi qoidaning qo'llanmasligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-829-son Qonunining 3-moddasi 2-bandi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 58-moddasi, ikkinchi qismi, "b" bandining 3-, 4-, 5- va 6-xatboshisiga kiritilgan o'zgartirishlar)ni shakllantirishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 20-fevraldagi № 3/dn-35-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy turdagi jinoyatga tayyorgarlik va suiqasd qilganlik holatlarida jazoni umumiy tartibda yengillashtirmaslik, ushbu jinoiy harakatlarga nisbatan jiddiy munosabatni ta'minlab, jinoyatning ijtimoiy xavfliligini to'g'ri baholashga va sudlarda yakdillik hamda individual yondashuvni mustahkamlashga xizmat qilgan;

sudlar tomonidan voyaga yetmaganlarga jinoiy jazo tayinlashda jinoyat sodir etish paytida o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan bir necha hukm yuzasidan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati o'n besh yildan oshmasligi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimi yanada takomillashtirishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-735-son Qonunining 1-moddasi 2-3-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 20-martdagi 27/2-49-25-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi bolalarga nisbatan jinoiy jazo qo'llashda odillik prinsiplarining mustahkamlanishi hamda voyaga yetmaganlarga nisbatan o'ta og'ir jazolar qo'llashdan saqlanishi orqali ularni qayta ijtimoiylashtirish va jamiyatga qaytarish imkoniyatini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 14 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 41 ta ilmiy ish, jumladan, 3 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 24 ta (shundan 17 ta respublika va 7 ta xorijiy) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 245 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy ta‘lim va tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti hamda predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy himoyasining nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarining jinoyat-huquqiy muhofaza obyekti ahamiyati, voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari jinoiy-huquqiy muhofazasini tartibga soluvchi xalqaro va milliy qonun hujjatlari tahlili, ulardagi mavjud kolliziya hamda bo‘shliqlar, shuningdek, voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlari muhofazasining xalqaro-huquqiy asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Dissertant voyaga yetmaganlar davlatning jinoiy-huquqiy siyosatida markaziy o‘rinlardan birini egallashi, sababi ularning normal rivojlanishi, shuningdek, huquqiy jihatdan muhofaza qilinishi kelajak avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lishida, butun jamiyatning rivojlanishida asosiy omil sifatida xizmat qilishi, shu bois mazkur qatlamning ijtimoiy muhofazasini ta‘minlash bo‘yicha doimiy islohotlarga ehtiyoj borligini alohida ta‘kidlab o‘tadi.

Muallif voyaga yetmaganlar jamiyatdagi eng zaif toifalardan biri bo‘lgani bois ular alohida huquqiy himoyaga muhtojligini ta‘kidlab, ayniqsa, jinoiy adolat tizimida ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ustuvor vazifalardan biri deb hisoblaydi. Yuqoridagilar mavzuning dolzarbligini asoslovchi eng muhim omillardir, bundan tashqari, mavzu nafaqat yurtimiz, balki jahon miqyosida alohida dolzarblik kasb etadi. YUNISEF ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida 250 million bola maktabga borish o‘rniga ishlamoqda, 5,7 million bola majburiy mehnatga jalb qilinayotgan bo‘lsa, 1,8 million bola fohishalik yoki pornografiyaga majburlanmoqda va yana 1,2 million bola odam savdosi qurboni bo‘lmoqda¹.

Mavzuning dolzarbligi yurtimiz aholisining demografik tahlilidan ham ma‘lum bo‘ladi, xususan, mamlakatimiz aholisining katta qismi(36,6 foizi)ni aynan voyaga yetmaganlar tashkil etib, ularning soni bugungi kunda 12 mln nafardan ortdi.

Dissertant mazkur bobda voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomi va manfaatlarini bir qancha manbalar asosida tahlil qilib, O‘zbekiston Respublikasi

¹ YUNISEF: Nizoli hududlarda maktabga bora olmayotgan 24 million bola bor. Manba: <https://kun.uz/news/2016/01/12/yunisef-nizoli-hududlarda-maktabga-bora-olmayotgan-24-million-bola-bor>

jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini quyidagi subyektlar sifatida himoyalash kategoriyalariga ajratib o'rganishni taklif etadi. Bular:

1) voyaga yetmagan jabrlanuvchi sifatida; 2) voyaga yetmagan jinoyatchi shaxs sifatida; 3) jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagani sababli subyekt bo'lmagan shaxs sifatida; 4) aqli noraso holatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs sifatida.

Muallif yuqorida taklif etgan har bir toifaning o'ziga xosligini ta'riflab, ular jinoyat qonunchiligida markaziy o'rinda turuvchi subyektlardan sanalishi, jinoyat huquqida mazkur qatlam muhofazasiga oid islohotlar tendensiyasi muhimligini isbotlab beradi.

Shuningdek, muallif bir qancha xorijlik va milliy olimlarning voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini to'g'risidagi xulosalari hamda jinoyat huquqida mazkur huquq va manfaatlarining aks etishi borasidagi to'xtamlardan foydalangan holda "Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy muhofazasi"ga quyidagi mualliflik ta'rifini taklif etgan: *"Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy muhofazasi – jinoyat qonunchiligi orqali ularning huquq va qonuniy manfaatlarini jismoniy zo'ravonlik, jinsiy tajovuz, shuningdek, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi sodir etiladigan jinoyatlardan himoya qilishga qaratilgan huquqiy normalar, institutlar va mexanizmlar majmuasidir"*.

Tadqiqotchi voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkinligini: *birinchi guruh* – ularda voyaga yetmagan shaxsning shaxsiy manfaatlarini asosiy jinoyat obyekti hisoblangan jinoyatlar tarkiblari sifatida; *ikkinchi guruh* – ularda voyaga yetmagan shaxsning shaxsiy manfaatlarini qo'shimcha jinoyat obyekti sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Jumladan, birinchi guruh jinoyatlariga voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy va ruhiy zo'ravonliklar, ularni ekspluatatsiya qilish, shuningdek, jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar kiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi 118-modda (Nomusga tegish), 128-modda (O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish), 129-modda (O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish) va boshqalar ushbu guruhdagi jinoyatlardan bo'lib, ularda voyaga yetmaganlarning shaxsiy manfaatlarini asosiy jinoyat obyekti hisoblanadi.

Ikkinchi guruh jinoyatlari esa voyaga yetmaganlarning huquqlari va manfaatlarini qo'shimcha jinoyat obyekti sifatida ko'rsatuvchi jinoyatlardan iborat. Bularga odam savdosi, giyohvandlik vositalarining noqonuniy savdosi, qo'shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash (voyaga yetmaganni jalb qilgan holda) va boshqa jinoyatlar kiradi. Masalan, odam savdosi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 135-moddasi) jinoyatida asosiy obyekt inson erkinligi bo'lsa-da, voyaga yetmaganlarning huquqlari va manfaatlarini qo'shimcha obyekt sifatida namoyon bo'ladi. Giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 273-moddasi) ham shu kabi jinoyatlar turkumiga kiradi, chunki bu jinoyatlarda voyaga yetmaganlarning salomatligi va tarbiyasi qo'shimcha jinoyat obyekti sifatida ko'rsatiladi.

Dissertant mazkur bobda voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari jinoyi-huquqiy muhofazasidagi muammolar va huquqiy bo'shliqlarni tadqiq etib, quyidagi muammolar dolzarbligini keltiradi:

*Birinchi*dan, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda voyaga yetmaganning yoshini aniqlash murakkabligi kabi muammolar huquqni qo'llash faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazayotganligi;

*Ikkinchi*dan, jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik turlari to'liq tasniflanmaganligi, bunda jinoyatlarning jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy bosim va nazoratsizlik kabi turli shakllarini qo'shimcha tadqiq etish lozimligi;

*Uchinchi*dan, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligini yuqori baholash bo'yicha yetarli huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi, chunonchi ayrim moddalarda voyaga yetmaganlarga nisbatan shu turdagi jinoyatning sodir etilishi og'irlashtiruvchi band sifatida qayd etilmaganligi;

*To'rtinchi*dan, ayrim turdagi jinoyatlar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilishi mumkinligidan kelib chiqib, jazolarni differentsiatsiya qilishda muqobil jazoli sanksiyalar belgilanmaganligi;

*Beshinchi*dan, subyekt yoshiga to'lmagan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun tarbiyaviy va reabilitatsiya choralarning huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi;

*Oltinchi*dan, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan majburlov choralarni qo'llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishning muqobil shakllari va turlari yetarli emasligi va boshqalar.

Shuningdek, muallif jinoyat qonunchiligida mavzu predmetiga oid bir qancha tushunchalarning, jumladan, "shafqatsiz muomala", "muttasil ravishda kamsitish", "og'ir oqibatlariga olib kelgan bo'lsa", "o'taketgan behayolik" va yana bir necha jumalarning aniq ta'rifi mavjud emasligini tanqid qilib, mazkur tushunchalarga aniq ta'riflar ishlab chiqilmagani natijasida huquqni qo'llash amaliyotida turlicha yondashuvlar va kvalifikatsion xatolar uchrayotganini amaliy misollar bilan asoslagan. Shu bois, dissertant bu borada normativ soddalik va aniqlik pozitsiyasini qo'llab-quvvatlashini bildirib, bu amaliyotdagi xatoliklarning oldini olishi va huquqni qo'llovchi uchun dolzarb ahamiyat kasb etishi borasida xulosaga kelgan. Bunda Jinoyat kodeksini rivojlantirish konsepsiyasidagi nazarda tutilgan atamalarning izohiga bag'ishlangan bo'lim kodeks so'ngida emas, balki eng avvalida to'g'ri va to'liq tarkibda belgilanishi lozimligini bayon etib, tadqiqot davomida aniqlangan noaniq jumalarga, so'rovnomalar, amaliyot materiallari hamda olimlarning fikrlariga asoslangan normativ ta'riflarni taklif etgan.

Dissertant sanab o'tilgan muammolarning dastlabkisi, ya'ni voyaga yetmaganning yoshini aniqlashga doir murakkabliklar bo'yicha tahlillarni amalga oshirib, 16 yoki 18 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, 16 yoshga to'lmagan shaxsga uyatsiz-buzuq harakatlar qilish (JKning 128-, 128¹-, 129-m.), voyaga yetmaganni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish (JKning 127-m.) jinoyatlarida jinoyat subyekti shaxsning voyaga yetmaganini bilmasligi yoki bilishi mumkin bo'lmasligi javobgarlikdan ozod etishda asos sifatida qaralishi, biroq O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O'RQ-829-sonli qonuni bilan

kiritilgan o'zgartirishlar natijasida yoshga doir ma'lumotlarni bilmaslik talabi bekor bo'lishi ham bu boradagi muammolarga yechim bo'la olmaganini amaliy misollar orqali aniqlagan.

Dissertant ayrim holatlarda mavjud erta jinsiy hayot, erta tug'ruq, jismoniy mutatsiya va boshqa bir qancha faktorlar sababli yoshni aniqlashga doir murakkabliklar bo'lishi, biroq bunda yoshni aniqlashda sud-tibbiy ekspertiza, tibbiy hujjatlar, ta'lim muassasasi ma'lumotlari kabi bir nechta manba va dalillarni majburiy ravishda tekshirish hamda kompleks baholash talabini qonun darajasida belgilash kerak, deb hisoblaydi. Mazkur istisnoni ham qayd etgan holda tadqiqotda qonunchilikka shaxsning ma'lum yoshga yetmaganini bilmasligi yoki bilishi mumkin bo'lmasligi holatlarini bekor qilish bo'yicha aniq qaydlar bilan qo'shimchalar kiritish lozimligi to'g'risidagi xulosalarga kelingan.

Muallif yuqorida sanab o'tilgan muammolarning barchasi bo'yicha tahlillarni amalga oshirib, Jinoyat kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflarini ilgari surgan (*To'liq matni dissertatsiya ishiga ilova qonun loyihasida.*)

Shuningdek, tadqiqotda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etiluvchi formal tarkibli jinoyatlar bo'yicha ham tahlillar amalga oshirilgan bo'lib, unda jinsiy turdagi jinoyatlar bo'yicha jinoyatga suiqasd qilish ayrim hollarda boshqa jinoyat tarkibi bilan tugashi mumkinligini keltiriladi. Xususan, JK 129-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha ko'p hollarda uyatsiz-buzuq harakatlar jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishdan oldin sodir etiladi, shu bois, bu kabi harakatlar shu bilan chegaralansa (o'z nihoyasiga yetmagan taqdirda), formal jinoyat sifatida JKning 129-moddasi tarkibi bilan kvalifikatsiya qilinadimi yoki 118-moddaning og'irlashtiruvchi holatiga suiqasd sifatidami? Tadqiqotda shu kabi bir qancha formal tarkibli jinoyatlar bo'yicha voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarining jinoiy-huquqiy muhofazasi bo'yicha ilmiy xulosalarga kelgan bo'lib, mazkur holatlarga huquqiy yechimlar va kvalifikatsion tushuntirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlarida nazarda tutilishi lozimligi ta'kidlangan va ushbu qaror loyihasi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, dissertant mazkur bobda voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlari muhofazasining xalqaro-huquqiy asoslarini ham tahlil qilib, mazkur sohaning jahonda barcha millat va davlatlar uchun yagona standart sifatida qaralishi lozim bo'lgan qoidalari shakllanishi va ularning mamlakatimiz milliy mentalitetiga muvofiq qismlarini o'zlashtirish borasidagi tajribalarini tadqiq etgan.

Bolalar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyatining huquqiy tartibga solinishi xalqaro darajada dastlab "Bola huquqlari bo'yicha Jeneva deklaratsiyasi"da qayd qilingan bo'lsa, keyinchalik bu borada asosiy xalqaro huquqiy manba sanalgan Bola huquqlari konvensiyasi qabul qilingan. Shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari Eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyada, Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi 182-sonli konvensiyada, Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining ko'rsatmalari (Ar-Riyod ko'rsatmalari)da va bir qator boshqa hujjatlarda o'z aksini topadi. Muallif umume'tirof etilgan qoidalar, eng avvalo, milliy qonunchilikda o'z ifodasini topishi va tadqiqot natijalari mazkur

qoidalarga muvofiq kelishi lozimligini qayd etgan. Shu bilan birga, jahonda bola huquqlari qay darajada ta'minlanayotgani hamda davlatlar bola huquqlarini ro'yobga chiqarishga qay tarzda intilayotganini aniqlaydigan "KidsRight Indeks" xalqaro reytingida bolaning yashash, sog'liq, ta'lim olish, himoyalani sh hamda bola huquqlari uchun qulay muhit yaratish kabi mezonlar orqali baholanishi, 2024-yilda Lyuksemburg (1), Islandiya (2), Gretsiya (3), Qozog'iston (21), Turkmaniston (33), Rossiya (87), Qirg'iziston (89), Tojikiston (99), O'zbekiston esa 194 ta davlat orasida 97-o'rinni egallaganini keltirib, tegishli indikatorlar mavjudiligi sababli, jinoiy-huquqiy siyosatda olib borilayotgan islohotlar ham mazkur reytingga ijobiy ta'sir etishi borasidagi xulosalarini bayon etgan.

Muallif, shuningdek, ushbu bobda bolaning har bir huquqi xalqaro darajada mustahkamlanganini xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlari asosida keltirib, milliy qonunchilikdagi ayrim normativ hujjatlarni xalqaro darajadagi huquqiy me'yorlarga muvofiqlashtirish bo'yicha bir qancha takliflarni ilgari surgan. Shulardan eng dastlabkisi milliy qonun hujjatlarida 18 yoshga to'lmagan shaxslarning turlicha nomlanishi bo'lib, bunda "voyaga yetmagan", "yosh", "bola", "farzand", "o'spirin", "yoshlar" kabi terminlardagi har xillikni bartaraf etish lozimligi, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga ko'ra, 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs "bola" (child) deb belgilangani bois barcha milliy darajadagi qonun va qonunosti hujjatlaridagi mazkur jummalarni "bola" jumlasiga qayta o'zgartirish lozimligi to'g'risida xulosaga kelgan. Mazkur o'zgartirish haqidagi taklif xalqaro darajadagi qonun hujjatlariga muvofiqlikni ta'minlash, normativ noaniqliklarni bartaraf etish hamda xalqaro indekslarga ijobiy ta'sir etish kabi zarurat bois ilgari surilgan (*To'liq matni dissertatsiya ishiga ilovada*).

Shu bilan birga, dissertant bolalar huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlarini tahlil qilib, "***bolalar huquqlarini xalqaro himoya qilish***" jumlasiga ta'rif ishlab chiqish zarurati mavjudiligini asoslab, unga quyidagicha mualliflik ta'rifini taklif qilgan:

Bolalar huquqlarini xalqaro himoya qilish, bu bolalarning huquqlarini ta'minlash maqsadida xalqaro standartlarni ishlab chiqish va davlatlar tomonidan ushbu huquqlarga rioya etilishini nazorat qilish uchun maxsus mexanizmlarni yaratish orqali himoyani amalga oshiradigan xalqaro organlar va protseduralar tizimidir.

Muallif bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar tizimini maqsadi, hududiy amal qilish doirasi, yuridik kuchi, sohaviy mansubligi va boshqa mezonlar bo'yicha tasniflagan bo'lib, bunday tasniflash qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotida aniqlik va tizimli yondashuvni ta'minlaydi, degan xulosaga kelgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning jinoiy-huquqiy tavsifi va ularni kvalifikatsiya qilish muammolari**" deb nomlanib, mazkur bobda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning umumiy tasniflanishi, voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy zo'ravonlik qo'llab sodir etiladigan jinoyatlar, jinsiy jinoyatlarning jinoiy-huquqiy tahlili hamda oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar uchun

javobgarlik negizida voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini himoya qilinishining jinoiy-huquqiy tahlili amalga oshirilgan.

Dissertant mazkur bobda voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatlarning tasniflanishi ularga qarshi kurashish va profilaktika mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga egaligi, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va shafqatsiz muomala muammosi ortib borayotganini bayon etadi. O‘zbekistonda Bola huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan voyaga yetmaganlar soni 45 mingdan ortiqni tashkil etgan bo‘lsa, sodir etilgan jinoyatlar natijasida 723 nafar bola halok bo‘lgan, mingdan ortiq bola esa og‘ir tan jarohati olgan.

Yuqoridagi raqamlar tahlili ham voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy muhofaza qilishni doimiy takomillashtirib borish, xususan, mazkur zaif qatlamga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarni tasniflashni tadqiq etish zarurati mavjudligini asoslaydi. Shu bois, muallif mazkur bobda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarni jinoiy-huquqiy tasniflashda A.V. Vinogradov, R.V. Poltarigin, A.S. Yakubov, N.I. Vetrov, Sh. Berdiyev singari olimlarning bu boradagi xulosalari bilan ilmiy munozaraga kirishib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligiga ko‘ra, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiluvchi jinoyatlarni quyidagi tasniflarga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi. Jumladan:

1) Jinoyatlar (tajovuz) mazmuniga ko‘ra, tasniflangan jinoyatlar turlariga quyidagi moddalar tegishli: jismoniy zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar, jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlari, axloqqa qarshi jinoyatlar, voyaga yetmaganlarni jinoyatga jalb etish bilan bog‘liq jinoyatlar, voyaga yetmaganlarning ozodligi, sha‘ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar.

2) Jabrlanuvchi yoshiga ko‘ra tasniflashi: 14 yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan: 14–16 yoshgacha voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan: 16–18 yoshgacha voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan.

3) Jinoyatchi shaxslar tasnifiga ko‘ra tasniflanishi: yaqin qarindoshlari tomonidan; yaqinlari tomonidan; tarbiyasiga mas‘ul shaxslar tomonidan; begona shaxslar tomonidan (kriminologik tahlil).

4) Jinoyat obyektiv tomon tarkibiga ko‘ra tasniflanishi: asosiy tarkibli (bevosita); og‘irlashtiruvchi tarkibli (bilvosita) jinoyatlar.

Yuqoridagi tasnifga bo‘lib o‘rgangan holda jinoyatlarni tizimlashtirish, avvalo, bu turdagi ijtimoiy munosabatlarning jinoiy-huquqiy tartibga solinishiga, mazkur normalarning yanada rivojlanishiga hamda voyaga yetmaganlarning bu boradagi huquq va manfaatlarini muhofazalanishiga imkon yaratishi asoslantirilgan.

Muallif jinoyatlarni yuqoridagi tasnifga ko‘ra guruhlar ekan, voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy muhofaza qilishda og‘irlashtiruvchi tarkibli jinoyatlar va ularning xususiyatlarini tahlil qiladi va quyidagi mezonlarga muvofiq baholaydi:

qo‘shimcha og‘irlashtiruvchi holatlar: jinoyatni og‘irroq darajada namoyon qiladigan vaziyatlar;

oqibatlarining jiddiyligi: jabrlanuvchi yoki jamiyat uchun katta zarar yetishi;

yuqori ijtimoiy xavf: jamiyatning bu boradagi qattiq salbiy munosabati va qonuniy jazo talab qilishida namoyon bo‘ladi.

Dissertant aynan voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar yuqoridagi mezonlarga muvofiq ijtimoiy xavfli hisoblanishini jinoyatlarni sodir etish turi bilan asoslab, og‘irlashtiruvchi band sifatida “voyaga yetmaganga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa”, og‘irlashtiruvchi qism va badda aks etishi lozim bo‘lgan jinoyatlar ro‘yxati – og‘irlashtiruvchi tarkibli jinoyatlarning obyektiv tomonini tahlil qilish orqali ularning ijtimoiy xavfini va zarur jazo choralarini aniqlash imkonini beradi, degan xulosaga kelgan.

Muallif mazkur bobda bolalarni jismoniy zo‘ravonlik qo‘llab sodir etiluvchi jinoyatlar qurboni sifatida jinoiy-huquqiy tomondan tahlil qilib, uni tadqiq etish tendensiyasi quyidagi jahon statistik ma‘lumotlariga ko‘ra dolzarb ekanini ta‘kidlaydi. Jumladan, BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, 2006-yilda 50 000 ortiq bola halok bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib har yili 80 000 dan ortiq bola zo‘ravonlik qurboni bo‘lmoqda¹. YUNISEF ma‘lumotiga ko‘ra, dunyoda 2 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan har 10 ta boladan 6 nafari har kuni jismoniy zo‘ravonlikka uchraydi. Har 5 daqiqada bir nafar bola zo‘ravonlikdan vafot etadi².

Mazkur ko‘rsatkichlar mamlakatimizda quyidagicha aks etmoqda: 2021-yilda bolalarga nisbatan 1 831 ta jinoyat sodir etilgani aniqlangan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 20 foizga oshib, 2 194 taga yetdi. Ushbu davrda bolaning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar soni 334 tadan 395 taga (+18 foiz) oshdi. Bunday jinoyatlarning aksariyati Farg‘ona (719), Samarqand, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida qayd etilgan³.

Dissertant mazkur raqamlarni tahlil qilib, zo‘ravonlik bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatishini, shu sababli uni kamaytirish uchun davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish, bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy va xalqaro mexanizmlarni takomillashtirish talab etilishi lozimligini ta‘kidlaydi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy chora-tadbirlarning eng yorqin namunasi – 2024-yil 14-noyabr kuni qabul qilingan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun hisoblanadi. Muallif qonunning jinoiy-huquqiy siyosatdagi ahamiyatini tahlil qilib, unda asosiy tushuncha va tamoyillar belgilanganligi jinoyat qonunchiligidagi ayrim normalardagi tushunchalarning turlicha talqin qilinishini bartaraf etishga xizmat qilishini ta‘kidlaydi.

Tadqiqotning mazkur bobida voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik tushunchasini qonun doirasida aniq mustahkamlashni taklif etiladi, bu orqali huquqni qo‘llash amaliyotidagi turli talqinlarga barham berish, ayniqsa, “zo‘rlilik”, “majburlash”, “ruhiy majburlash” tushunchalarini aniq chegaralash imkoniyati yuzaga kelishi ta‘kidlanadi.

Dissertantning ilmiy taklifiga ko‘ra, amaldagi Jinoyat kodeksida “jismoniy zo‘ravonlik” alohida huquqiy kategoriya sifatida kiritilishi va uning turlari – bevosita ta‘sirilar (tan jarohati), bilvosita ta‘sirilar (qo‘rqitish, qamoqqa olish,

¹ <https://violenceagainstchildren.un.org/news/srsg-santos-pais-highlights-crucial-role-played-ombudsman-protection-human-rights-modern-UN-Special-Representative-of-the-Secretary-General-on-Violence-Against-Children>.

² Juvonen, J.; Graham, S. (2014). Bullying in Schools: The Power of Bullies and the Plight of Victims. Annual Review of Psychology. 65:159–85. doi:10.1146/annurev-psych-010213-115030 (<https://doi.org/10.1146/annurev-psych-010213-115030>).

³ Сенат “Болаларни зўравонликнинг барча шаклларидадан химоя қилиш тўғрисида”ги қонунни маъқуллади // Manba: <https://www.gazeta.uz/uz/2024/08/15/protecting-children-from-violence/>

yordamsiz qoldirish) kabi shakllarda mustahkamlanishi kerak. Shunga mos ravishda “majburlash” tushunchasiga muallif tomonidan quyidagi mualliflik ta’rifi taklif etilgan: *“jabrlanuvchining irodasiga qarshi amalga oshiriladigan, uning jismoniy va ruhiy daxlsizligini buzuvchi, qasddan sodir etiladigan, ijtimoiy xavfli, qonunga xilof ta’sir”*.

Bundan tashqari, *“Bolaga nisbatan jismoniy zo’ravonlik”* jumlasiga huquqiy ta’rif ishlab chiqilgan bo’lib, unga ko’ra ***“Bolaga nisbatan jismoniy zo’ravonlik*** – jamiyatda yoki oilada kattalar tomonidan kundalik turmush jarayonida bolaning hayoti, sog’lig’i, rivojlanishi, jismoniy, ma’naviy va axloqiy kamoloti, erkinligi, jinsiy daxlsizligi, or-nomusi, qadr-qimmatini va qonun bilan qo’riqlanadigan huquq hamda qonuniy manfaatlariga qarshi jismoniy kuch ishlatish yoki uni qo’llash bilan qo’rqitishdir”.

Shuningdek, muallif “shafqatsiz muomala” jumlasini qonunchilikda alohida qayd etilmaganini tanqid qilib, mazkur jumlagacha imperativ ta’rif berish zaruratini asoslagan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida”gi 6-son qarorini quyidagi norma bilan to’ldirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Xususan, “Voyaga yetmaganlarga nisbatan **shafqatsiz muomala** deb ularga nisbatan muntazam ravishda jismoniy yoki psixologik zo’ravonlik, jinsiy tazyiq yoki tarbiyaning boshqa noqonuniy usullarini qo’llash natijasida hayoti, sog’lig’i, jismoniy daxlsizligiga yoki ma’naviy rivojlanishiga zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazish xavfini yuzaga keltiruvchi ta’sirni tushunish lozim”.

Dissertant BMTning Bola huquqlari bo’yicha qo’mitasi, V.V. Kladko, Y.M. Antonyan, K.V. Bezruchko, R.T. Gamidov kabi mutaxassislar ta’riflarini tahlil qilgan holda zo’ravonlikni universal huquqiy kategoriya sifatida qayta ta’riflash zaruratini asoslab beradi.

Qolaversa, huquqni qo’llash amaliyotini yanada chuqurlashtirish maqsadida “jismoniy zo’ravonlik” va “jismoniy majburlash” o’rtasidagi huquqiy chegaralar ham yoritiladi. Tadqiqotchi bu tushunchalarning mazmuniy farqlarini ochib berar ekan, ularni jinoyat tarkibidagi maqsad, oqibat va subyektiv tomon nuqtayi nazaridan farqlashni taklif etadi.

Shuningdek, tadqiqotda qonunchilikdagi tahlil etish zarur bo’lgan muammoli holatlar – xususan, Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlar yoshini hisobga olmaydigan moddalarning (164–166-moddalar) sanksiya jihatidan nomuvofiqligi, qonunchilikdagi bo’shliqlar va sud-tergov amaliyotidagi kvalifikatsiya murakkabliklari alohida ko’rsatilgan.

Muallif ushbu bobda statistik ma’lumotlarga tayangan holda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning ijtimoiy xavfini keltirib, unda O‘zbekistonda jinsiy jinoyatlar dinamikasining ortishi, xususan, 16 va 14 yoshgacha bo’lgan bolalarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar sonining 40 foizga o’sganini bayon etadi.

Dissertatsiyaning ushbu bobida jinsiy jinoyatlarni *zo’rlik ishlatib sodir etiladigan va zo’rlik ishlatmasdan sodir etiladigan shakllarda* obyektiv tomon xususiyatiga ko’ra tasniflash taklif etiladi hamda har bir modda (JKning 118-, 119-, 121-, 128-, 128¹-, 129-, 130-, 131-, 135-m.) to’g’risida tahliliy tushuntirish beriladi.

Dissertant mazkur bobda voyaga yetgan shaxsning 16–18 yoshlilar bilan moddiy qimmatliklar berish evaziga jinsiy aloqa qilishi jinoyat sifatida qayd etilganligi, biroq hech qanday moddiy qimmatliklar va'da qilmagan holda jinsiy aloqa qilganlik yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmaganligini asosli tanqid qilib, mazkur turdagi jinoyatlarni tartibga keltirish bo'yicha takliflarni ilgari suradi (*To'liq matni dissertatsiya ishiga ilovada*).

Shuningdek, muallif bu boradagi "jinsiy rozilik yoshi" haqida milliy, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda xalqaro huquqni tahlil qilib, barcha hollarda bu yosh 16 yoshdan yuqori ekanini keltiradi. Bundan tashqari, amaldagi Jinoyat kodeksi 118-119-moddalaridagi "og'ir oqibatlariga olib kelgan" jumlasini amaliyotda turlicha talqinlarga sabab bo'layotgani, bu esa o'z navbatida diskret jumla sifatida "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga zid ekanligi, shu bois uni "jabrlanuvchining salomatligiga og'ir ziyon yetkazishga, uning OIV/OITS infeksiyasiga chalinishiga, shuningdek, ehtiyotsizlik bilan uning o'limiga sabab bo'lgan hollarda" so'zlari bilan to'ldirish hamda 118-119-moddalarning 5-qismidagi sanksiyasiga "Umrbod ozodlikdan mahrum qilish" jazosini kiritish orqali takomillashtirish bo'yicha takliflarni ilgari surgan.

Qolaversa, ushbu bobda tadqiqotchi JK 129-moddasidagi uyatsiz-buzuq harakatlar bo'yicha axborot-kommunikatsiya vositalari orqali jinoyat sodir etilishi uchun javobgarlik mavjud emasligini tahlil qiladi va shu yo'nalishda qonunchilikni to'ldirish taklifini ilgari suradi. Shuningdek, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar Jinoyat kodeksining V bobida alohida jamlanishini nazariy va amaliy jihatdan asoslab, bunday jinoyatlar umumiy jinsiy obyekt – jamiyatning axloqiy asoslari, oila instituti va voyaga yetmaganlarning ma'naviy rivojlanishini himoya qilish bilan birlashtirilishini ta'kidlaydi.

Dissertant Jinoyat kodeksiga yangi modda – "122²-modda. Voyaga yetmagan shaxsni tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik" moddasini kiritish taklifini ilgari suradi. Bunda mazkur norma orqali bolaga qo'pol munosabat, shafqatsizlik va tashlab qo'yish holatlarini jinoiy tartibda baholash zarurati xorijiy tajriba va milliy statistika orqali asoslashga harakat qilingan.

Dissertatsiyaning "**Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishning xalqaro huquqiy asoslari va xorij mamlakatlar tajribasi**"ga bag'ishlangan uchinchi bobida rivojlangan G'arb davlatlarida, Sharq davlatlarida hamda MDH davlatlarida voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy muhofaza qilish tajribasi tahlil qilingan. Xususan, tadqiqotchi AQSh, Angliya, Germaniya va Fransiya qonunchiligida voyaga yetmaganlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini o'rganar ekan, ushbu mamlakatlarda jabrlanuvchi yoshiga asoslangan differentsiatsiya, jinoyat tarkibida qo'shimcha kvalifikatsiyalovchi holatlar, axborot-kommunikatsiya vositalari orqali jinoyatlarni kvalifikatsiyalash, profilaktik nazorat (AQShda – RCNL), psixologik va ijtimoiy rehabilitatsiya tizimlari kabi tizimli yondashuvlarning amalda samarali ekanini ko'rsatadi.

Dissertant Sharq davlatlaridan Xitoy, Yaponiya, Tailand, Janubiy Koreya, Singapur va Turkiya kabi davlatlar jinoyat qonunchiligini tahlil qilgan holda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratadi: Xitoy va Singapurda – jazo qat'iyliigi, shu jumladan, o'lim jazosi mavjudligi; Yaponiyada – insonparvarlik va individual tahlil ustuvorligi; Janubiy Koreyada – profilaktika, moliyaviy zararni musodara qilish mexanizmi; Tailand va Turkiyada – jinsiy va axloqiy jinoyatlarning og'ir tarkib sifatida belgilanishi; Singapurda – AKT orqali sodir etilgan jinoyatlar uchun alohida sanksiyalar. Tadqiqotchining umumiy xulosasiga ko'ra, Sharq davlatlarining tarkib va sanksiya modeli O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega. Muallif voyaga yetmaganlarning jismoniy va ma'naviy daxlsizligini himoya qilish uchun Singapurda qat'iylik va Yaponcha insonparvarlikning muvozanatli modeliga asoslangan qonunchilik islohotini taklif etadi.

MDH davlatlari tajribasi, jumladan, Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Tojikiston va Ukraina jinoyat kodekslaridagi normalar tahlili ushbu davlatlarda: jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar uchun qat'iy sanksiyalar (umrbod ozodlikdan mahrum qilish); jabrlanuvchining yoshi asosida modda belgilash; ota-onalarning majburiyatni bajarmagani uchun javobgarlik; bolalarni jinoyatga jalb qilish, zo'rvonlik va shafqatsizlik uchun huquqiy mexanizmlar; tarbiyaga mas'ul shaxslar uchun alohida tarkiblar kabi yo'nalishlar keng tarqalganini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari jinoiy-huquqiy himoyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari”**ga bag'ishlangan to'rtinchi bobida voyaga yetmaganlarga qarshi sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda zamonaviy yondashuvlar hamda jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari himoyasini takomillashtirish masalalari atroflicha yoritilgan.

Dissertant mazkur bobda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning huquqiy kvalifikatsiyasidagi muammolar va ularni zamonaviy tahdidlar (ayniqsa, raqamli muhit tahdidlari) asosida qayta ko'rib chiqish zaruratini tahlil qilgan. Jumladan, voyaga yetmaganlarning jismoniy, jinsiy, iqtisodiy va axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi murakkab vaziyatni ko'rsatib, jinoiy-huquqiy islohotlarni amalga oshirishga doir ilmiy takliflarni ilgari suradi.

Muallif *kiberbulling*, *seksting*, *kibertahdid*, *kiberstalking*, *onlayn tajovuz* va *raqamli shantaj* kabi holatlarni kvalifikatsiyalashda mavjud qonun normalarining (JK 127-, 129-, 135-moddalari) yetarli emasligini qayd etgan.

Shuningdek, Jinoyat kodeksida raqamli muhit orqali sodir etiladigan jinoyatlar, xususan, bolalarni axborot platformalarida ta'qib qilish, shantaj qilish, jinsiy ekspluatatsiya va psixologik bosim o'tkazish kabi harakatlar maxsus modda sifatida nazarda tutilmaganini alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lib, yangi huquqiy moddalarni joriy etish, ya'ni *kiberbullitsid*, *seksting*, *kibergruming*, *onlayn ekspluatatsiya* kabi jinoyatlar uchun alohida moddalar kiritish zarurligi ilgari suriladi. Bu moddalarda jinoyat subyektlari, axborot muhiti, psixosotsial ta'sir va ommaviy oqibatlar hisobga olinishi shartligi qayd etiladi.

Jinoyatni og'irlashtiruvchi holat sifatida – “telekommunikatsiya tarmoqlari yoki internet vositasida jinoyat sodir etish” alomati Jinoyat kodeksining 56-, 127-, 129- va 135-moddalariga alohida band sifatida kiritilishi taklif etilgan. YUNISEF

va BMT ma'lumotlariga asoslanib, muallif internetda voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlikning o'sib borayotganini, jinoyat shakllari Z-avlodga nisbatan murakkablashganini va ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda raqamli muhitni hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, dissertant, voyaga yetmagan shaxslarning huquq va manfaatlarini jinoyiy-huquqiy jihatdan samarali himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikni takomillashtirish zaruratini asoslab beradi. Tadqiqotchi bolalar huquqlarini ustuvor ijtimoiy qadriyat sifatida belgilash, xalqaro standartlar bilan uyg'un huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, huquqni qo'llash amaliyotida yagona va aniq yondashuvni ta'minlash masalalariga e'tibor qaratadi. Jumladan, Jinoyat kodeksida bolalar huquqlarini ustuvor himoya obyekti sifatida aks ettirish taklif qilinadi (JK 2-moddasida). Bu orqali bolalar huquqlarining yuridik maqomi kuchaytirilishiga erishilishini asoslaydi.

Shuningdek, Jinoyat tarkiblarini aniqlashtirish, ayniqsa, "uyatsiz-buzuq harakatlar", "zo'ravonlik", "ekspluatatsiya" kabi tushunchalarni huquqiy jihatdan aniq ifodalash zarurati ko'rsatiladi. Amaldagi ta'riflar noaniqligi va sud amaliyotida ziddiyatlarga sabab bo'layotgani qayd etiladi.

JK 56-moddasida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinoyat sodir etish og'irlashtiruvchi holat sifatida qayta ta'riflanishi lozimligi, moddada "yosh bola" tushunchasi kengaytirilib, butun voyaga yetmaganlar toifasi qamrab olinishi zarurligi asoslanadi. Shu bilan birga, muallif bugungi kunda internet butunjahon axborot tizimi orqali sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfini tahlil etib, moddani ayni band bilan to'ldirish zaruratini asoslashga harakat qilgan.

Shu bilan birga, dissertant mazkur bobda shaxsga qarshi jinoyatlarni tahlil qilgan holda mazkur toifadagi jinoyatlarda voyaga yetmaganlar manfaatlari yetarlicha inobatga olinmagan, degan xulosaga kelgan. Muallif mazkur xulosani huquqni qo'llash amaliyoti bilan asoslashga harakat qilgan bo'lib, unda og'irlashtiruvchi holatda qasddan odam o'ldirish jinoyati (JKning 97-moddasi 2-qismi "v" bandi)dagi "ojiz ahvol" jumlasini diskret talqin qilinishi mumkin bo'lgan jumla ekanini ta'kidlaydi. Xususan, 2020-yilda 377 ta jinoyat qayd etilgan bo'lsa, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan qotillik jinoyatlarining 13 tasidan atigi 4 tasi (30,7 foizi) JKning 97-moddasi 2-qismi "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilingan. 2021-yilda jami 440 ta qotillik bilan bog'liq jinoyatlar sudlarda ko'rib chiqilgan bo'lsa, ulardan 21 tasi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan va ularning 6 tasi yoki 28,5 foizi og'irlashtiruvchi holatda sodir etilgan, deb topilgan. 2022-yilda 422 ta qotillik jinoyatidan 19 tasi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, ularning atigi 4 tasi yoki 21 foizi og'irlashtiruvchi holat, deb huquqiy baholangan. 2023-yilda 358 ta jami qotillik va 18 tasi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, shundan 10 tasi og'irlashtiruvchi holat sifatida baholangan. 2024-yilda jami 402 ta qotillik jinoyati sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan va ularning 22 tasi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan, mazkur

jinoyatlarning 13 tasi yoki 59 foizi og'irlashtiruvchi holat sifatida huquqiy baholangan¹.

Muallif qotillik jinoyatlariga huquqiy baho berishda amaliyotda og'irlashtiruvchi bandlarni sud va tergovchilar o'z qoidalaridan kelib chiqib talqin qilayotganini aytib, bu o'z navbatida, jinoyat huquqiy siyosatda voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazmoqda, degan xulosaga kelgan. Shuningdek, bu borada xorijiy tajriba, so'rovnomalar va olimlarning xulosalariga tayangan holda JKning shaxsga qarshi jinoyatlar tarkibiga voyaga yetmaganlarning manfaatlarini inobatga olgan holda tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni ilgari surgan (*To'liq matni dissertatsiya ishiga ilova qilingan qonun loyihasida*).

XULOSA

Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy muhofaza qilishni takomillashtirish masalalarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy muhofaza qilishni takomillashtirish masalalarini ilmiy tahlil qilish, mavzu doirasida ilmiy kategoriyalarning mazmunini yanada aniqlashtirish zarurati hamda nazariy tahlillar natijasida quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi:

– *voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy himoya qilish* – jinoyat qonunchiligi orqali ularning huquq va qonuniy manfaatlarini jismoniy zo'ravonlik, jinsiy tajovuz, shuningdek, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi sodir etiladigan jinoyatlardan himoya qilishga qaratilgan huquqiy normalar, institutlar va mexanizmlar majmuasidir;

– ***bolalar huquqlarini xalqaro himoya qilish*** – bolalarning huquqlarini ta'minlash maqsadida xalqaro standartlarni ishlab chiqish va davlatlar tomonidan ushbu huquqlarga rioya etilishini nazorat qilish uchun maxsus mexanizmlarni yaratish orqali himoyani amalga oshiradigan xalqaro organlar va protseduralar tizimidir;

– *majburlash* – jabrlanuvchining irodasiga qarshi amalga oshiriladigan, jabrlanuvchi badaniga muayyan darajada shikast yetkazishga (jismoniy zo'rlik) yoxud shunday shikast yetkazish bilan qo'rqitish (ruhiy zo'rlik) orqali amalga oshirishga qaratilgan, uning jismoniy va ruhiy daxlsizligini buzuvchi, qasddan, ijtimoiy xavfli qonunga xilof ta'sir;

– *ruhiy majburlash* – boshqa shaxsning irodasini bostirish yoki jinoyatchi uchun foydali bo'lgan harakatlar sodir etilishiga erishishga qaratilgan, shaxsning ruhiyatiga to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita huquqqa xilof axborot orqali ta'sir.

2. Voyaga yetmaganlarning "huquqlari" va "qonuniy manfaatlari" bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar bo'lib, ular ushbu ijtimoiy qatlamning alohida himoya va qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmandligini aks ettiradi. Voyaga yetmaganlar –

¹ Sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan ayrim turdagi jinoyatlarning hududlar kesimi bo'yicha dinamikasi./ <https://stat.sud.uz/assets/uploads/criminal/pdf/criminal-2024-full.pdf>

jamiyatda mustaqil ravishda o'zini to'liq namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan, shu sababli maxsus shart-sharoitlar va huquqiy mexanizmlar orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'lgan ijtimoiy guruhdir. Shu nuqtayi nazardan, "qonuniy manfaatlar" tushunchasining "voyaga yetmaganlar huquqlari" atamasi bilan yonma-yon qo'llanishi voyaga yetmaganlar manfaatlarining ko'lami va maqsadini aniqlashda muhimligi asoslantirildi.

3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxslar bir necha maqomda ishtirok etishlari mumkinligi ko'rsatildi: 1) jabrlanuvchi sifatida; 2) jinoyatchi shaxs sifatida; 3) jinoiy javobgarlik yoshiga yetmaganligi sababli jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan shaxs sifatida; 4) aqli noraso holatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs sifatida.

4. Voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bir qator vazifalarni bajaradi: voyaga yetmaganlarga nisbatan qilingan tajovuzlar uchun kuchaytirilgan javobgarlikni belgilaydi (masalan, JK 118-moddasi 3-qismi "a" bandi); voyaga yetmaganlarni tarbiyalash, o'qitish va (yoki) unga g'amxo'rlik qilishga mas'ul maxsus subyektlar uchun jazoni kuchaytiradi (masalan, JK 128-moddasi 3-qismi "a" bandi); voyaga yetmaganlarning ayrim manfaatlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar bo'yicha maxsus qilmishlar ro'yxatini belgilaydi (jumladan, JK 125-moddasi).

5. Jinoyat kodeksi moddalarini tahlil qilish asosida voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: *birinchi guruh* – ularda voyaga yetmagan shaxsning shaxsiy manfaatlari asosiy jinoyat obyekti hisoblangan jinoyatlar tarkibi; *ikkinchi guruh* – ularda voyaga yetmagan shaxsning shaxsiy manfaatlari qo'shimcha jinoyat obyekti sifatida namoyon bo'ladi.

6. Bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar tizimi *maqsadi, hududiy amal qilish doirasi, yuridik kuchi, sohaviy mansubligi* kabi mezonlar bo'yicha tasniflanishi asoslantirildi.

7. Bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro standartlarni amalga oshirishda quyidagi omillar to'siq bo'layotgani aniqlandi: *birinchidan*, resurslarning yetishmasligi; *ikkinchidan*, madaniy va an'anaviy amallar; *uchinchidan*, majburlash mexanizmlarining yetishmasligi va *to'rtinchidan*, zaif qatlam guruhlarni himoya qilishdagi bo'shliqlar.

8. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlar bir qator quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega, xususan: *jismoniy rivojlanishga ziyon yetishi* (voyaga yetmaganlarga jismoniy zarar yetkazuvchi jinoyatlar, masalan, zo'ravonlik yoki qotillik, ularning sog'lig'i va hayotiga xavf tug'diradi); *ruhiy rivojlanishga ziyon yetishi* (ruhiy bosim, qo'rqitish va tahqirlash kabi jinoyatlar bolalarning psixologik holatiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatadi); *axloqiy rivojlanishga ziyon yetishi* (bolalarni jinoiy faoliyatga jalb qilish, fohishalikka majburlash yoki giyohvandlikka jalb qilish kabi jinoyatlar ularning axloqiy-etik qadriyatlarini buzadi).

9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalari tahlili orqali voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarni bir necha mezonlarga ko'ra tasniflash lozim topildi. Xususan: *jinoyatlar (tajovuz) mazmuniga ko'ra*: jismoniy zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar; jinsiy zo'ravonlik jinoyatlari; axloqqa qarshi jinoyatlar; voyaga yetmaganlarni jinoyatga jalb etish

bilan bog‘liq jinoyatlar; *jabrlanuvchi yoshiga ko‘ra*: 14 yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan; 14–16 yoshgacha voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan va 16–18 yoshgacha voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan; *jinoyatchi shaxslar tasnifiga ko‘ra*: yaqin qarindoshlari tomonidan; yaqinlari tomonidan; tarbiyasiga mas‘ul shaxslar tomonidan; begona shaxslar tomonidan (kriminologik tahlil); *jinoyat obyektiv tomoni tarkibiga ko‘ra*: asosiy tarkibli (bevosita) va og‘irlashtiruvchi tarkibli (bilvosita).

II. Milliy qonunchilikni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar:

10. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining shaxsga qarshi jinoyatlar bobiga quyidagicha o‘zgartish va qo‘shimchalarni kiritish taklif etiladi:

1) **“97-modda. Qasddan odam o‘ldirish”** moddasini quyidagi qism bilan to‘ldirish:

2-qism. v) **Ojizligi yoki voyaga yetmaganligi aybdorga ayon shaxsga nisbatan.**

2) **“98-modda. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish”** moddasini quyidagi 2-qism bilan to‘ldirish:

O‘sha harakatlar voyaga yetmagan shaxsning o‘limiga olib kelsa–
besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

3) **“100-modda. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish”** moddasini quyidagi 2-qism bilan to‘ldirish taklif etiladi:

O‘sha harakatlar voyaga yetmagan shaxsning o‘limiga olib kelsa –
uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

4) **“101-modda. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish”** moddasi quyidagi 2-qism bilan to‘ldirish taklif etiladi:

O‘sha harakatlar voyaga yetmagan shaxsning o‘limiga olib kelsa –
uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

5) **“102-modda. Ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirish”** moddasi 2-qismiga quyidagi to‘ldirish taklif etiladi:

Ehtiyotsizlik orqasida ikki va undan ortiq odam o‘ldirish yoki ehtiyotsizlik orqasida voyaga yetmagan shaxsni o‘ldirish.

11. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 56-moddasidagi “ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanib qasddan jinoyat sodir etish”ni og‘irlashtiruvchi tarkib sifatida belgilash taklif etiladi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 118-119-moddalari 3-qismidagi “e” bandini “og‘ir oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa” so‘zlari o‘rniga “ehtiyotsizlik orqali og‘ir shikast yetkazilishiga, OIV infeksiyasi bilan zararlanish yoki boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa” so‘zlari bilan to‘ldirish taklif etiladi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 118-moddasi 4-qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxsning nomusiga tegish yoki shunday harakatlar jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lsa, –

o‘n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi”.

14. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini quyidagi mazmundagi 122²-modda bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“122²-Voyaga yetmagan shaxsni tarbiyalash bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik

Voyaga yetmagan shaxsni tarbiyalash bo‘yicha majburiyatlarni ota-ona yoki ushbu majburiyat yuklatilgan boshqa shaxs tomonidan bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, shuningdek, pedagogik xodim yoki ta’lim muassasasi, tibbiyot muassasasi, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilot yoki voyaga yetmagan shaxsni nazorat qilishga mas’ul bo‘lgan boshqa tashkilotning xodimi tomonidan ushbu majburiyatlarni bajarmaslik, agar bu harakat voyaga yetmagan shaxsga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish bilan bog‘liq bo‘lsa, –

muayyan huquqdan mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

15. Jinoyat kodeksining 131-moddasi 4-qismida voyaga yetmagan shaxsni fohishalikka jalb qilish uchun javobgarlik belgilangan, lekin mazmunan fohishalik ham g‘ayriijtimoiy xatti-harakat hisoblanadi, shuningdek, u aynan voyaga yetmagan shaxslarni jalb etishga qaratilganligi sababli ham ushbu qilmish uchun javobgarlik belgilanganini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 127²-modda (voyaga yetmagan shaxsni fohishalikka jalb qilish) bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“127²-modda. Voyaga yetmagan shaxsni fohishalikka jalb qilish.

Voyaga yetmagan shaxsni aldash, majburlash, zo‘rlik ishlatish, moddiy manfaat ko‘rishni va’da qilish yoxud boshqacha yo‘l bilan fohishalikka jalb etish, – ikki yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

takroran yoxud JKning 131-, 135-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir qilgan shaxs tomonidan;

uyushgan guruh tomonidan sodir qilinishi, –

yetti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

16. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 128-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“128-modda. O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish

O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish –

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) takroran, xavfli retsivist tomonidan yoki ilgari ushbu kodeksning 118-, 119-, 121- va (yoki) 129-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) yaqin qarindoshiga yoki bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga nisbatan;

v) jabrlanuvchini tarbiyalash, o‘qitish va (yoki) unga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatlarini bajarayotgan shaxs tomonidan, shuningdek, jabrlanuvchiga qarab turish majburiyatlari qonun bilan zimmasiga yuklatilgan ta‘lim, tarbiya, davolash yoki boshqa muassasaning xodimi tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, –

sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

17. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 128¹-moddasini quyidagi tahrirdagi uchinchi qism bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“128¹-modda. Voyaga yetmagan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish.

O‘sha harakatlar:

a) takroran, xavfli retsivist tomonidan yoki ilgari ushbu kodeksning 118-, 119-, 121- va (yoki) 129-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) yaqin qarindoshiga yoki bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga nisbatan;

v) jabrlanuvchini tarbiyalash, o‘qitish va (yoki) unga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatlarini bajarayotgan shaxs tomonidan, shuningdek, jabrlanuvchiga qarab turish majburiyatlari qonun bilan zimmasiga yuklatilgan ta‘lim, tarbiya, davolash yoki boshqa muassasaning xodimi tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, –

sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

18. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 129-moddasi ikkinchi qismini quyidagi band bilan to‘ldirish taklif etiladi:

i) telekommunikatsiya tarmoqlari yoki Internet jahon axborot tarmog‘i orqali sodir etilgan bo‘lsa.

III. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari jinoiy-huquqiy muhofazasini takomillashtirish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar:

19. Bugungi kunda bolalarga nisbatan ijtimoiy tarmoqlar va Internet jahon axborot tizimida turli tajovuzlar ortib borayotganini inobatga olgan holda shunday turdagi tahdidlarga uchragan bolalar uchun IIV Kiberxavfsizlik markazi qoshida ishonch telefonlari joriy qilish maqsadga muvofiq.

20. Jinsiy turdagi zo‘ravonlikka uchragan voyaga yetmaganlar bo‘yicha qo‘zg‘atilgan barcha turdagi jinoyat ishlari respublika miqyosida faqatgina ayol xodima tergovchilar tomonidan olib borilishini ta‘minlash mazkur voyaga yetmaganlarning qayta ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.

21. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarda ularning yoshini aniqlash bilan bog‘liq majburiy kvalifikatsion murakkabliklarda sud gabitologik ekspertiza tayinlash orqali ularning ham tashqi belgilari, ham faktik yoshini inobatga olish lozim.

22. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan ayrim turdagi jinoyatlar uchun jazo tizimiga qo‘shimcha ravishda BMTning 1985-yilgi “Beijing Rules” – Voyaga yetmaganlar adliyasi standart qoidalariga muvofiq,

xalqaro umume'tirof etilgan alohida probatsiya dasturlari, qat'iy nazorat ostida bo'lish, axloqan tuzatuvchi dasturlarda ishtirok etish, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish, psixologik reabilitatsiya kurslarida qatnashish kabi muqobil majburlov choralarini kiritish taklif etiladi.

23. O'zbekiston Respublikasi JKga bosqichma-bosqich zo'raonlikning turli ko'rinishlari, xususan, *bulling*, *kiberbulling*, *trolling*, *xeyting*, *freyping*, *dissing*, *auting*, *ketfishing*, *stalking*, *griffing*, *seksting* singari turlarini oqibatiga muvofiq hamda preyuditsiya tartibida jinoyat sifatida qayd etish taklif etiladi.

24. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 29-bandining uchinchi xatboshisiga quyidagi tahrirda o'zgartirish kiritish taklif etiladi:

"Agar voyaga yetmagan shaxs giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki aql-idrokka ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etilgan bo'lsa, aybdorning harakatlari maxsus norma, ya'ni JK 274-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi".

25. Milliy qonun hujjatlarida 18 yoshga to'lmagan shaxslarning turlicha nomlanishi, ya'ni "voyaga yetmagan", "yosh", "bola", "farzand", "o'spirin", "yoshlar" kabi terminlar qo'llangan, bu har xillikni bartaraf etish maqsadida BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs "bola" (child) deb belgilanganligi bois ushbu konvensiyaga muvofiq, barcha milliy darajadagi qonun va qonunosti hujjatlaridagi mazkur jummlalarni "bola" jumlasiga qayta o'zgartirish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ
ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

АШУРОВА НИЛУФАР УКТАМОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ
ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ**

12.00.08 – Уголовное право. Уголовно-исполнительное право

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (DSc)**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2025.3.DSc/Yu394.

Диссертация выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)), размещен на веб-странице Научного совета (www.mgjxu.uz) и Информационно-образовательного портала Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Рустамбаев Мирзаюсуп Хакимович
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Уразалиев Мурод Кораевич
доктор юридических наук, профессор

Каландаров Максуд Махмудович
доктор юридических наук, профессор

Утемуратова Сапаргул Шамшетовна
доктор юридических наук, доцент

Ведущая организация:

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Защита диссертации состоится 19 декабря 2025 года в 11:00 часов на заседании научного совета DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 по присуждению ученых степеней при Университете общественной безопасности Республики Узбекистан (адрес: 100211, Ташкентская обл., Зангиатинский район, поселок Чорсу. Тел.: 998971 230-32-71; факс: 99871 230-32-50; e-mail: jxu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (зарегистрирована за №3303) (адрес: 100211, Ташкентская обл., Зангиатинский район, поселок Чорсу. Тел.: 998971 230-32-71; факс: 99871 230-32-50).

Автореферат диссертации разослан 10 декабря 2025 года.

(Реестр протокола рассылки № 26 от 9 декабря 2025 года)



Д.М. Миразов
Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

Ж.Д. Ахмедов
Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по юридическим наукам (PhD)

М.Б. Усмонов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире преступления против несовершеннолетних проявляются как одна из наиболее актуальных и тревожных проблем. К таким преступлениям относятся физическое и сексуальное насилие, эксплуатация, торговля детьми, кибернасилие и другие формы насилия. В частности, по данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), каждый второй ребенок в мире – около 1 миллиарда детей – ежегодно подвергается различным формам насилия¹. По данным ООН, ежегодно около 1 миллиона детей становятся жертвами сексуальной торговли². Каждый год примерно 40 000 детей погибают в результате насилия со стороны родителей или законных опекунов³. В результате стремительного развития технологий 80 % лиц, совершающих преступления сексуального характера, используют социальные сети для установления контактов с детьми (по данным Интерпола)⁴.

В мировом масштабе последовательно проводятся широкомасштабные и комплексные научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование уголовно-правовой защиты несовершеннолетних, предотвращение посягательств и насилия в отношении детей в любой форме, эффективное обеспечение их прав и свобод. В частности, осуществляются научные исследования по: анализу распространенности случаев физического, эмоционального и сексуального насилия в отношении детей в 172 странах; сравнительному анализу эффективности законодательства стран, предусматривающих пожизненное заключение за педофилию, и регионов с низким уровнем наказания; изучению тактик и методов груминга (манипуляции путем завоевания доверия), совершаемого в Интернете и социальных сетях; разработке и внедрению алгоритмов искусственного интеллекта для обнаружения вредоносного контента, а также научному изучению долгосрочного воздействия насилия в отношении детей на психическое здоровье (депрессия, посттравматические стрессовые расстройства, суицидальные наклонности) и совершенствованию систем их ресоциализации и реадaptации. Кроме того, особое научное и практическое значение приобретают вопросы обеспечения принципов дифференциации и индивидуальности при применении мер ответственности и наказания в сфере правовой защиты детей в соответствии с международными стандартами, повышения уровня их эффективного отражения в национальном законодательстве. В настоящее время анализ существующих теоретических и практических проблем в этих направлениях, разработка научно обоснованных решений и подготовка предложений и рекомендаций, гармонизированных с международно-правовыми нормами и общепризнанными стандартами в области прав человека, выступает приоритетной задачей современных научных исследований.

¹ https://www.who.int/violence_injury_prevention

² <https://www.unicef.org/protection>

³ Исследования в журнале *The Lancet* или отчеты UNICEF *A Familiar Face: Violence in the Lives of Children and Adolescents* (2017).

⁴ *Crimes Against Children* (доступ через официальный сайт Interpol).

В нашей стране последовательно реализуются комплексные программные меры, направленные на защиту прав и законных интересов несовершеннолетних, предупреждение преступлений против семьи, молодежи и нравственности по всем направлениям государственной молодежной политики. В частности, в 14-й цели приложения 1 к Указу Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» предусмотрена задача кодификации законодательства о правах ребенка в рамках превращения принципов справедливости и верховенства закона в основное и необходимое условие развития в нашей стране. Также в 24-й цели приложения 1 к Указу Президента Республики Узбекистан «О Стратегии “Узбекистан-2030”» определена задача – формирование в обществе культуры нетерпимости к притеснению и насилию в отношении детей в целях совершенствования системы социальной защиты детей.

Это, в свою очередь, определяет такие важные задачи, как совершенствование и либерализация уголовного и уголовно-процессуального законодательства, декриминализацию отдельных уголовных деяний, гуманизацию уголовных наказаний и порядка их исполнения; повышение эффективности координации деятельности по борьбе с преступностью и профилактике правонарушений; повышение правовой культуры и правосознания населения, организацию эффективного взаимодействия государственных структур с институтами гражданского общества и средствами массовой информации в этой сфере. Реализация целей, поставленных нашим государством на основе данной стратегии, требует, прежде всего, повышения эффективности мер наказания, связанных с данным преступным деянием, в уголовном законодательстве путем исследования вопроса уголовной ответственности за вовлечение несовершеннолетних в антиобщественное поведение, отдельного определения ответственности должностных лиц и специалистов, отражения в законодательных актах современных угроз и методов вовлечения несовершеннолетних в антиобщественное поведение при борьбе с данным видом преступлений, совершенствования институтов правовой защиты в данной сфере путем выявления существующих на практике проблем, совершенствования механизмов стимулирования участия институтов гражданского общества и широкой общественности в профилактике данного вида преступлений.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Уголовном кодексе Республики Узбекистан (1994), Законах Республики Узбекистан: «О гарантиях прав ребенка» от 7 января 2008 года № ЗРУ-139, «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» от 29 сентября 2010 года № ЗРУ-263, «О противодействии торговле людьми» от 17 августа 2020 года № ЗРУ-633; в Указах Президента Республики Узбекистан: «О мерах по дальнейшему реформированию судебно-правовой системы, усилению гарантий надежной защиты прав и свобод граждан» от 21 октября 2016 года № УП-4850, «О мерах по коренному реформированию и выведению на новый этап государственной молодежной политики в Республике Узбекистан» от 30 июня 2020 года № УП-6017, «О дополнительных мерах по всесторонней поддержке молодежи и дальнейшему повышению ее социальной активности» от 13 июля 2021 года № УП-6260, «О мерах по качественной и

своевременной реализации Стратегии “Узбекистан-2030”» в 2023 году» от 11 сентября 2023 года № УП–158, а также в постановлениях Президента Республики Узбекистан: «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы профилактики правонарушений и борьбы с преступностью» от 14 марта 2017 года № ПП–2833, «О мерах по коренному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства» от 14 мая 2018 года № ПП–3723, «О дополнительных мерах по дальнейшему усилению гарантий прав ребенка» от 22 апреля 2019 года № ПП–4296, а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной темы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики – I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

